

GOSPITAL TA'LIMDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna

Maktabgacha va mактаб та'лими vazirligi huzuridagi

*"Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi
umumi o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim*

Sag'dullayev Quvonchbek Akmal o'g'li

Maktabgacha va mактаб та'лими vazirligi huzuridagi

*"Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi
umumi o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim*

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta'linda tabiiy fanlarni o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan topishmoqlardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, topishmoq, mantiqiy fikrlash, interaktiv metodlar, ijodiy yondashuv, xotira, tafakkur.

Tabiiy fanlar, xususan geografiya, fizika va biologiya kabi fanlar o'quvchilarining nafaqat bilimlarni, balki dunyoqarashini ham kengaytiradi. Biroq, bu fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar uchun barcha mavzularni tushunish va eslab qolish oson bo'lmaydi. Shu nuqtada, gospital ta'linda interaktiv metodlarning, jumladan, topishmoqlarni qo'lllashning o'rni katta. Topishmoqlar o'quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi, balki ularni o'ylashga, mantiqiy fikrlashga va ijodiy yondashishga undaydi.

Topishmoq – xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri bo'lib, biror narsani bevosita aytmasdan, ishoralar va tavsiflar orqali berilgan savolga o'xshash ifodadir. Ularning maqsadi fikrlashni charxlash, topqirlik va zukkolikni oshirishdir. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi, madaniyati, urf-odatlari ma'lum darajada talqin etiladi. O'quvchilarining dunyoqarashini shakllanishiga, onging o'sishiga, nutqini boyishiga va fikrlash doirasini kengayishiga topishmoqlar katta ahamiyat kasb etadi. Bilim olishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishini oshiradi. O'rtaga tashlangan jumboq ustida o'ylay turib, fikrlash doirasi kengayadi, estetik dunyoqarashi shakllanadi, hayotni har tomondan kuzatib tahlil qilishga odatlanadi.

Topishmoqlarning ahamiyati ko'p jihatdan o'quvchilarining fikrlash va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jihatlar orqali ularning ahamiyatini ko'rsatish mumkin:

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi: Topishmoqlarni yechish orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va turli variantlarni sinab ko‘rish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Til va so‘z boyligini oshiradi: Topishmoqlarni o‘qish yoki tinglash til boyligini oshirishga yordam beradi, chunki ular ko‘pincha biror narsani tasvirlash uchun noan'anaviy va boy til vositalarini ishlatadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantiradi: Topishmoqlar an'anaviy fikrlashdan chiqish va yangi, kreativ yechimlar izlashni o‘rgatadi. Bu ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Qiziqarli va o‘rgatuvchi: Topishmoqlar odatda o‘yin shaklida bo‘lgani uchun, ularni yechish qiziqarli bo‘ladi. Bu o‘quvchilarining diqqatini jamlash va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Aqliy faoliyatni o‘stiradi: Topishmoqlarni yechish nafaqat aqliy, balki boshqalarni tushunish va tahlil qilishda diqqatni jamlashni o‘rgatadi, bu esa umumiy fikrlash salohiyatini kuchaytiradi. Topishmoqlar odamlarni yangi narsalarni o‘rganishga, hayotdagi turli vaziyatlarga yangi nuqtai nazardan qarashga undaydi.

Shu sababli, topishmoqlar nafaqat qiziqarli o‘yin sifatida, balki bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham muhim vositadir.

Geografiya fanida topishmoqlar: Geografiya fanida topishmoqlar o‘quvchilarga dunyo haqida ko‘proq bilib olishga yordam beradi. Masalan, geografik xususiyatlar yoki mamlakatlar haqida topishmoqlar, o‘quvchilarining diqqatini jalb etish va ular orqali o‘rganayotgan mavzuni yaxshi eslab qolish imkonini beradi.

To‘rt tomoning aniqlab berar,
Darajada joylar aks etar.
Osmondami, suvda, o‘rmonda,
Sayohating chog‘i asqotar. (*kompas*)

Bir xil baland nuqtani,
Tutashtirar bir chiziq.
Unga relyef bo`lsa bas,
Hech rang ishlatmas qiziq. (*gorizontal*)

Mening shaklim yumaloq,
Harakatdaman har choq.
Qish, bahor, yoz va kuzni,
Kechasi va kunduzni,
Hadya etaman senga,

Quyoshga tutib o`zni. (*Yer*)

Yunonchadan qilsang tarjima,
“Shimoliy” dir uning ma'nosi.
U mintaqa katta bir zona.
Juda sovuq, shimol sahrosi. (*Arktika*)

Geografik atama, hodisa, joy nomlari va boshqalarni topishmoqlar asosida bayon etilishi o‘quvchilarni unga mos javobni topish uchun bilgan barcha ma’lumotlarni eslashga, geografik xaritalarni tasavvur qilish, materiklar, davlatlar, rayonlar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarni yodda saqlashga o‘rgatadi.

Fizika fanida topishmoqlar: Fizika fanida topishmoqlar o‘quvchilarga tabiiy qonuniyatlar, energiya va kuchlar haqida yangi tushunchalar beradi. Ular mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va o‘quvchilarning bilimlarni oddiy, ammo samarali tarzda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Fizika fanida topishmoqlar qiziqarli va o‘ylantiruvchi savollarni keltirib chiqaradi. Masalan:

Ko‘zga ko‘rinmas
Qo‘lga ilinmas,
Shusiz hech joyda,
Hayot ham bo‘lmash. (*havo*)

Kerak har bir xonadonga,
Issiqligi huzur jonga.
Televizor, muzlatgich,
U bor bo‘lsa jonli tirik. (*elektr toki*)

Nur sochadi har yoqqa,
Kerakmas unga gugurt.
U bilan ravshandir yurt. (*lampochka*)

Ming chiroqda yuzta son,
O‘lchar yuza va tomon. (*santimetr*)

Bu kabi topishmoqlar o‘quvchilarga fizikaviy hodisalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi.

Biologiya fanida topishmoqlar: Biologiya fanida topishmoqlar o‘quvchilarga organizmlar, ekologiya va biologik jarayonlar haqidagi bilimlarni qiziqarli tarzda o‘rgatadi. Ular o‘quvchilarga biologik terminlarni eslab qolishda yordam beradi, shuningdek, fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Qip-qizilu, anormas,
Cho‘g‘ga o‘xshash, yonolmas,
Mo‘ralaydi egatdan,
Joy oladi savatdan (*qulupnay*)

Soyabonga o‘xshar tanasi,
Gar teginsang chaqar ninasi. (*meduza*)

Ko‘kka qarab tolmaydi,
Ko‘kdan ko‘zin olmaydi. (*kungaboqr*)

Boshi bor-u sochi yo‘q,
Ko‘zi bor-u, sochi yo‘q. (*baliq*)

Bu kabi topishmoqlar biologik tizimlar va ularning ishlashini o‘rgatishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Topishmoqlarning dars jarayonida qo‘llanilishi. Topishmoqlarni tabiiy fan darslarida quyidagi usullar bilan qo‘llash mumkin:

- ✓ **Dars boshlanishida motivatsiya sifatida** – o‘quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash va qiziqtirish uchun.
- ✓ **Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida** – yangi tushunchalarni qiziqarli shaklda tushuntirish uchun.
- ✓ **Takrorlash jarayonida** – o‘rganilgan mavzularni mustahkamlash uchun.
- ✓ **Mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun** – o‘quvchilarga mustaqil topishmoq tuzish vazifasi berish orqali.

Xulosa. Gospital ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda topishmoqlarni qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning ilmiy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, balki ularning mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi. Geografiya, fizika va biologiya kabi fanlar orqali o‘quvchilarni ilmiy terminlarni o‘rganishi va eslab qolishi osonlashadi. Topishmoqlar o‘quvchilarga qiziqarli va interaktiv tarzda bilim olish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o‘z navbatida o‘qish jarayonini yanada samarali va foydali qiladi. Shunday qilib, topishmoqlar tabiiy fanlarni o‘qitishda muhim o‘rin

tutadi, chunki ular o‘quvchilarga o‘rganayotgan mavzu haqida yangi yondashuvlar va tushunchalar kiritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ф.Хамроева., Д.Х.Усмонова. Географияда мультимедиа технологиялари асосидаги интерактив ўйинлардан фойдаланиш. Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 2022.
2. Alimova N., Sag‘dullayev Q., Xoliqulova D. Gospital ta’limda tabiiy (science) fanlarni o‘qitishning interfaol usullari. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. Toshkent, 2024.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
4. Internet ma’lumotlari.